

MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARINING CHOLG'U IJROCHILIGI FANI ORQALI IJROCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

D.S.Samatova¹
Sh.N.Omanqulova²

1.2.O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining cholg'u ijrochiligi malakalarini mukammal egallashi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, cholg'u ijrochiligi kompetensiyalarini pedagogik faoliyat jarayonida qo'llashi, cholg'u ijrochiligi fani orqali talabalarining ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar tahlil etilgan. Shu bilan birga cholg'u ijrochiligi kompetensiyalari mazmuni keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi, cholg'u ijrochiligi, ijrochilik kompetensiyalari, pedagogik faoliyat, musiqa madaniyati darslari, o'qituvchi, o'quvchi, rubob cholg'usi.*

Samatova D.S.
Musiqa ta'limi kafedrasini assistenti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston
samatovadilnoza1983@gmail.com

Omanqulova Sh.N.
Musiqa ta'limi kafedrasini dotsenti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston
shohida.omanqulova@mail.ru

Аннотация: В статье основное внимание уделяется совершенствованию музыкального образования студентов высших учебных заведений и их подготовке к профессиональной деятельности, применению музыкально-исполнительских компетенций в педагогическом процессе, а также педагогическому развитию исполнительских компетенций студентов посредством науки о музыкально-исполнительском процессе. анализ подробно описан. При этом представлено содержание исполнительских компетенций на музыкальных инструментах.

Ключевые слова: *студент музыкального образования, игра на музыкальных инструментах, исполнительские компетенции, педагогическая деятельность, уроки музыкальной культуры, педагог, ученик, инструмент рубаб.*

Abstract: The article focuses on the perfect mastery of music education students of higher educational institutions and their preparation for professional activities, the application of musical performance competencies in the pedagogical process, and the pedagogical development of students' performance competencies through the science of musical performance process analysis is covered in detail. At the same time, the content of musical instrument performance competencies is presented.

Key words: *music education student, musical instrument performance, performance competencies, pedagogical activity, music culture lessons, teacher, student, rubob instrument player.*

O'zbek xalqining bebaho boyliklaridan biri hisoblanmish milliy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezaklarining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi.

Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shuningdek, ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatga egadir. Ayniqsa cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmda, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini yanada boyitishga yordam beradi.

Hozirgi davr madaniy hayotimizni san'at turlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu hol ayniqsa musiqa san'ati timsolida yorqin namoyon bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, musiqa namunalari an'anaviy bayram va tomoshalardan tashqari yana bizga hamroh, kundalik turmush tarzimizda bizga "yo'ldosh" bo'lib bormoqda. Shu bilan birga musiqaning turli daraja va saviyalarda bo'lgan namunalari hamda ularning turfa ijrolari bilan bog'liq holda madaniy hayotimizda bir qadar murakkab ko'rinishli "vaziyatlar" ham yuzaga kelmoqda. Bu o'rinda ijro etilayotgan musiqa asarida milliy cholg'ularining ham ahamiyati borligini nazarda tutish kerak, albatta.

Asrlar davomida shakllangan va xalqimizning ma'naviy hayotidan muhim o'rin olgan milliy cholg'ularining bu jarayonda tutayotgan o'zni benihoya muhimligi bilan ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda, tanbur, dutor, sato, doira, qonun, nay kabi yana ko'plab milliy cholg'ularimizni turli ansambl va ijodiy jamoalar (orkestrlar) tarkibida, hatto estrada guruhlari tomonidan yangicha talqinlarda qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi milliy cholg'ularimizning boy tembr-tarovati va texnik imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur avtonom okrugi)ning Qashqar degan joy nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg'u hisoblanadi. Qashqar rubobi chalishga qulayligi sababli ko'p o'rganuvchilar cholg'u o'rganishni aynan shu cholg'uda boshlaydi. Cholg'u o'rganishni endigina o'zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig'i ana shu cholg'udan foydalanishi bizga ma'lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo'lib, nisbatan tez o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan cholg'ular qatoriga kiradi. Bu cholg'u yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatilishi mumkin [2].

Qadimgi ruboblar hozirgi biz qo'llayotgan qashqar rubobi ko'rinishidan keskin farq qilgan, lekin negizi bir-biri bilan bog'liqdir. Qadimiy ruboblar besh torli bo'lgan. To'rtta tori ipakdan, bittasi esa kumushdan yasalgan.

Bu cholg'uning kelib chiqish tarixi to'g'risida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan Al-Forobiy (X asr) o'z davrining musiqa cholg'ularini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali (XVII asr) "Musiqa haqida risola" asarida musiqa cholg'ularining tuzilishini bayon qilar ekan, "Rubob torli musiqa cholg'usi. O'rta Osiyoda Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo'q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor bo'lib, ulardan to'rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi" [5],- deb yozadi. Qashqar rubobi hozirda yakkanavoz soz sifatida o'zbek xalq ansambllarida yetakchi o'rinni egallaydi. Diapazoni kichik oktava lya tovushidan uchinchi oktava lya tovushigacha. Hozirgi qashqar rubobida beshta tor mavjud. To'rttasi metall aralashmasidan, bittasi ichak yoki ipakdan qilinadi. Sozlanishi kvarta va kvarta-kvinta oralig'ida bo'ladi, ya'ni birinchi tor lya tovushiga, ikkinchi tor mi tovushiga, uchinchi tor lya yoki si tovushlariga sozlanadi.

Qashqar rubobining ommalashuvida katta hissa qo'shgan, ustozlik darajasiga yetgan sozandalar: Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Shavkat

Mirzayev, Olimboy Rahmonov, Ari Boboxonov, Orif Atoyev, Tohir Rajabiy, Hikmat Rajabovlarni misol keltirishi mumkin.

Bugungi kunda musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyatida cholg'u ijrochiligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki ijrochilik malakalarini mukammal egallagan, pedagogik madaniyatiga, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo'lgan o'qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash muammosi, ayniqsa, dolzarbdir. Musiqa o'qituvchisining faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta'minlash mumkin. Shu ma'noda musiqa ta'limi yo'nalishida kasbga tayyorlanayotgan mutaxassislar yuqoridagi keltirilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari cholg'u ijrochiligi fani orqali torli cholg'ular guruhiga kiruvchi, o'zbek xalq cholg'ulari orasida eng ko'p tarqalgani "qashqar rubobi"ning tarixi, tuzilishi, ijrochilik imkoniyatlari, ijrochilik xususiyatlari, qashqar rubobida o'zining ijro uslubiga ega bo'lgan mashhur sozandalar-bastakorlar haqida kengroq ma'lumot ega bo'ladi va bu orqali ularning ijrochilik kompetensiyalari ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek cholg'u ijrochiligi darslarida talabalar qashqar rubobida ijrochilik texnikalarini oshirib borishlari uchun ko'plab mashqlar, etyud va gammalar bilan shug'ullanish metodikasi bilan tanishadi. Qashqar rubobi uchun yaratilgan pyesalar va yirik shakldagi asarlar hamda o'zbek va chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlarni pedagogikaning oddiydan murakkablikka qarab borish prinsipi orqali o'rganib borishi talabalarni ijrochilik kompetensiyalarini yanada boyitadi.

60111300-Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalariga o'quv reja asosida o'qitilib kelinayotgan "Cholg'u ijrochiligi" fani quyidagi maqsad va vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

"Cholg'u ijrochiligi" fanining maqsadi – talabalarning o'quv jarayonida olgan bilimlarini mutaxassis sifatida mujassamlashtirish, keyingi o'qituvchilik faoliyatida cholg'u asboblari ijro etishni tashkil qilish yo'llarini, talaba va o'quvchilarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish, madaniy merosga to'g'ri yondashishga, ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantirib borib, g'oyaviy-badiiy va ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat[7].

Ushbu fan orqali talabalar cholg'uda milliy musiqiy asarlar va milliy xalq kuylarini yuksak badiiy did bilan ijro etish malakalarini takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Darslar jarayonida ta'limning tarbiya bilan mushtarakligiga erishish maqsadida, talabalar yuksak axloqiylik, milliy ong, milliy tuyg'u, milliy iftixor, Vatanni sevis va ardoqlash hislarini tarbiyalab borish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Talabalarning dastlabki bosqichlarda olgan bilim, ko'nikma va malakalari yanada mustahkamlashlari lozim. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zbek xalq kuylari, MDH davlatlari kompozitorlarining eng sara cholg'u asarlari hamda xorijiy kompozitorlar va Yevropa klassik kompozitorlari tomonidan yaratilgan musiqiy asarlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Cholg'u ijrochiligi fanining vazifalari – «Cholg'u ijrochiligi» bo'yicha talabalarni cholg'u ijrochiligi tarixi, ijrochilikda cholg'ularning shakllantirilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, ansambllarni tashkil qilish haqidagi nazariy va amaliy bilimga ega bo'lish, ijrodagi usullar (cholg'u zarblari, usullari, shtrixlari).

Bezaklardan unumli foydalana olish, cholg'ular ijrosida unison va ko'p ovoqli musiqiy asarlarni o'rganish, tahlil qila olish, cholg'ular haqida qiziqarli suhbatlar o'tkaza olish, umumta'lim maktablarida turli xil ansambllarni tashkil eta olish, repertuar tanlay olish, konsert chiqishlarini uyushtirish malakalarini egallashdan iborat. Musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish; musiqiy-estetik qarashlar, ularda yuksak badiiy musiqiy didni shakllantirishdan iborat[7].

Talabalarning ushbu fanni o'zlashtirishlari uchun ular turli xil texnik ijroga erishishlari va zamonaviy cholg'u usullarida kompetentlikka erishishlari, ijro etish ishlarini mavjud darslik, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanib, dastur tuzishlari hamda uni amalda bajara olishlari kerak. Bunda asosan, talabalar nazariy ma'lumotlarni o'rganish, uni amaliy ijro bilan birgalikda olib borish hamda pedagogik faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishi kerak.

Cholg'u ijrochiligi fanining o'qitilishi orqali egallanishi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar.

1. Amaliy mashg'ulotlar mazmun-mohiyatini o'rganish uchun talabalar avvalam bor quyidagi kompetensiyalarni egallashi lozim:

- ✓ o'zbek musiqasi rivojida cholg'u sozlarining tutgan o'rni;
- ✓ milliy cholg'u sozlari va boshqa sozlar bilan uyg'unligi;
- ✓ cholg'ularning kelib chiqish tarixi;
- ✓ ijrochilik texnikasini oshirish;
- ✓ cholg'ularning ijro imkoniyatlari;
- ✓ taniqli sozandalar haqida tarixiy va nazariy bilimlarni egallash;
- ✓ ijrochilikda melezmlarning qo'llanilishi kabilar.

2. Cholg'ularni to'g'ri asrash, sim taqish, xarrak o'rnatish va sozlash malakalarini o'zlashtirishlari kerak. Cholg'uga qo'l va barmoqlarni joylashtirish, bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasida noxun tutish va to'g'ri tovush chiqarish malakalarini singdirib borish [6]: Endi oddiy mashqlar, gammalar, etyudlar emas, balki, murakkab gamma, etyud va mashqlar hamda ancha yuksak ijro mahoratini talab qiladigan kuy va pyesalar chalishni o'zlashtirib borish, murakkab zarblarni o'rganishlari ham maqsadga molikdir. Cholg'uda chalish texnikasini bosqichma – bosqich o'qitib borish, asarlarni ravon, jarangli ifoda vositalariga amal qilgan holda ijro etish texnikasini o'zlashtirib borish hamda ijro paytida yuksak mahorat bilan cholg'ularni ijro etishlari lozim.

Quyida talabalarga "Hojiniyoz" o'zbek xalq kuyini qashqar rubobida ijro etishni o'rgatish pedagogik jihatdan yoritib berilgan.

1. O'zbek xalq kuylari turkumidan "Hojiniyoz" kuyini o'rganishdan oldin O'zbek xalq kuylari haqida qisqacha ma'lumotlarni eslab o'tamiz. "O'zbek xalq kuylari bizgacha musiqashunos olimlar tomonidan mohir sozandalar ijrosidan notalarga olingan. "Hojiniyoz" kuyi M.Muhammedov ijrosidan O'.Rasulov tomonidan notaga olingan. Mutaxassislarining yozishlaricha qachonlardir o'zbek xalq kuylari muayyan bastakorlar tomonidan yaratilib, xalq orasida mashhur bo'lgan, yillar o'tib keyinchalik muallifi unutilgan, balki noma'lum bo'lgan asarlar o'zbek xalq kuylari turkumiga kiritilgan bo'lishi mumkin. "Hojiniyoz", "Abdurahmonbegi", "Aliqambar" kabi asarlar bastakorlarning o'zlarini nomlari bilan atalgan"[2].

2. “Hojiniyoz” kuyi ko‘plab mohir sozandalar tomonidan ijro qilingan va oltin merosdan joy olgan. Bu kuyni ijro etishdan oldin uning yozib olingan tasmalarini diqqat bilan tinglash lozim.

Kuyni o‘rganishni boshlashdan avval qo‘llarni qizdirish mashqlarini ijro etish zarur. 1 va 2-mashqlar o‘ng qo‘l uchun, 3-mashq chap qo‘l uchun. Albatta sanab barmoqlarni toliqtirmagan holda, barmoqlarni birinchi bo‘g‘inini bukib tik bosgan holatda ijro etish zarur agarda toliqsa bo‘g‘inni ozgina orqaga tortgan holatda bajarilsa ham bo‘ladi. (1-2-rasmlar)

(1-rasm)

1-mashq.



(2-rasm)

2-mashq.



3. “Hojiniyoz” kuyi d-moll tonalligida yozilgan 3 qismli asar. Ushbu maqolada 1 va 2 – qismlari kiritilgan. Kuy chiroyli ijro etilishi sozandadan mohirlikni talab etadi. Kuyni ijro etishda qochirimlar, melizmlarni o‘z o‘rnida ishlatib, applikatura asosida chalish maqsadga muvofiqdir (3-rasm). Kuyda chiroyli nolalarni ishlatish tinglovchini yuragidan joy olishga imkoniyat yaratadi. Asar tekis silliq yozilgan, avjida notalarda sakrashlar uchraydi, shtrixlar rang – barang keladi, rezlar mayinlik bilan ijro etiladi.

(3-rasm)



4. Asarning 2-qismida usul o‘zgaradi. (4-rasm) Bu qismida ham bidratmalar, har xil melizmlar bilan mohirona ijro etishni talab etadi va oxrida 10 takt 1-qismdagi fraza qaytarilib, tempi ham o‘zgaradi.

(4-rasm)



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samatova D. Cholg'u ijrochiligi (Oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma). –Toshkent: Fan bulog'i nashriyoti, 2023.
2. Akbarov I. Musiqa lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1997.
4. Qudratov I., Odilov A. Cholg'u asboblarida ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish. – Samarqand: SamDU, 2015.
5. Rahimov Sh., Saidov A. Sharq allomalarining musiqiy qarashlari. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2011.
6. Hamroqulov R.B. Cholg'u ijrochiligi. – Samarqand: SamDU, 2022.

Elektron ta'lim resurslar

1. <https://uz.wikipedia.org/>